

## SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARI VOSITASIDA O‘QUVCHI - YOSHLARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Axmedova Feruzabonu Alisher qizi  
Andijon Davlat Pedagogika Instituti Magistranti

### Annotatsiya

Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari - jahon pedagogikasi rivojiga qo‘shilgan ulkan xissasidir. Ushbu maqolada ularning boy merosi o‘qituvchining ma‘naviy-axloqiy qiyofasi va kasbiy etukligini takomillashtirishda muhim asos bo‘lib xizmat qilishi, o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalashda nimalarga ahamiyat berish kerakligi haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘qituvchi, o‘quvchi, pedagogik jarayon, ilm egallash, ma‘naviyat, milliylik, ta‘lim-tarbiya, asar, fazilar, ahloqiy sifat, mutafakkir, muhit, hadis, hadisshunos, munosabat, oila.

Yoshlar tarbiyasida mutafakkirlarning qarashlari, olimlarning fikrlarini o‘rganar ekanmiz, beixtiyor millatimizga xos bo‘lgan axloqiy, tarbiyaviy fazilatlar ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Shuningdek, ilk tarbiya, samimiy munosabat, go‘zal muomala oiladan ota-onalarimizning namunasi timsolida shakllanadi.

Sharqning buyuk mutafakkirlari Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Maxmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Amir Temur, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Haydar Xorazmiy, Xofiz Xorazmiy kabi buyuk siymolar millatimizning iftixorlari ekanligini bilishimiz zarur.

Al-Xorazmiyning asarlarda insonni ulug‘lash, adolat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, xalqparvarlik, mardlik, saxiylik, kamtarlik, rostgo‘ylik, do‘stlik, olijanoblik, muruvvatlilik, odob-axloq, ilm-ma‘rifat g‘oyalari ilgari surilgan.

Mutafakkir insonning insonga bo‘lgan samimiy muhabbatini ta‘riflab quyidagicha yozadi: »Muhabbat har qanday qimmat narsaning bahosidir va u har qanday yuqori narsaning shotisidir. Muhabbat xor-xashaklarga bardosh berilmasa va uning loyqa suvlarini ichmasa, unda yaxshilik bo‘lmaydi. Muhabbat qanday yaxshi shafedir va uning egasiga qalb qanday yaxshi yordamchidir». Mutafakkir yoshlarni navqironlik davrining har daqiqasini qadriga etishga, halol mehnat qilib, farovonlik, baxt-saodatga erishishga chaqiradi.

Abu Nasr Forobiy (873-950) ilmning turli sohalariga oid katta ilmiy meros qoldirdi. M.Xayrullayev o‘zining “Forobiy va uning falsafiy asarlari” monografiyasida Forobiyning 119 ta asari ro‘yxatini keltiradi. O‘z davrining zukko, ilmli mutafakkiri Forobiy 70 dan ortiq tilni mukammal bilgan va ko‘pgina tillardagi eng muhim asarlarni asliyatda mutolaa qilgan.

Agar Aristotel Sharqda “Muallimi avval” degan unvon olgan bo‘lsa, Forobiy Aristotel asarlarini targ‘ib qilgani va uning qarashlarini yanada rivojlantirgani, Aristotel kabi universal ilmga ega bo‘lgani uchun “Muallimi soniy” (“Ikkinchi muallim”) degan nom olgan. Forobiy ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan “Fozil shahar aholilarining fikrlari”, “Baxt-saodatga erishuv haqida risola”, “Baxt-saodatga erishuv yo‘llari” kabi asarlarni yozgan. Forobiy fazilatli shaharda ilm, falsafa, axloq, ma‘rifatning ahamiyati birinchi o‘rinda bo‘lmog‘i kerak, shundagina jamiyat yetuklikka erishadi, deya ta‘kidlaydi. Uning fikricha, insonning va jamiyatning g‘alabaga erishuvi, yaxshilikni qo‘lga kiritish, axloqiy va aqliy mukammallikka erishuvi inson va jamoaning o‘z qo‘lidadir, shuningdek, bilim-ma‘rifat, albatta, yaxshi axloq bilan bezanmog‘i lozim, – degan so‘zlari zamirida oilada, ta‘lim muassasalarida farzandlarga nafaqat bilim, balki tarbiya ham zarurligi ilgari surilgan. Zero, dono xalqimiz “Bola – odobi bilan go‘zal”, deb bejiz aytmagan.

Abu Nasr Forobiyning: “Inson o‘z baxtiga erishishda go‘zallikni ko‘rishi va his qilishining o‘zi etarli emas, buning uchun go‘zallikni yarata olishi muhimdir”, – degan fikrlarida olam-olam ma‘no bor. Mutafakkirning bu fikrida bugungi ota-onalarimiz o‘zlari namuna bo‘lgan holda oilalarida, ishlarida, ro‘zg‘orlarida, uy tutishlarida, o‘zaro munosabatlarida, yurish-turishlarida, kiyinishlarida, salomatliklarida, farzand tarbiyasida, ular bilan bo‘ladigan muomalada go‘zallikni yarata olishlari zarur, degan g‘oya o‘z aksini topgan. Ajdodlarimiz ham o‘zlari namuna bo‘lgan holda o‘z farzandlariga pandu nasihatlar qilganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy: “Har inson kasb-korini mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i, yaxshi xulq-atvorga, fazilatlariga ega bo‘lmog‘i kerak”, – degan ekan. Arab hikmatlarining birida: “Uch narsa kishi aqlini peshlaydi: biri olimlar va keksalar bilan suhbat, ikkinchisi hayotiy tajriba, uchinchisi chidam va sabot bilan intilish. Inson ikki narsaning qadrini faqat yo‘qotgandagina biladi: biri yoshlik, biri sog‘liq”, – deb ta‘kidlangani bejiz emas.

Abu Abdulla Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (774- 1140) 10 yoshidan hadislarini chuqur o‘rganib, 16 yoshida Haj safarini o‘tagan va Makkada 4 yil yashagan. Keyinchalik arab mamlakatlarida safarda bo‘lib, 600 ming hadis to‘plagan va ulardan 100 mingini tanlab, ularning haqiqiy (sahih) ekanligini isbotlagan. Shuningdek, 200 ming g‘ayri sahih hadislarini yoddan bilgan. Mutafakkir o‘z Vataniga qaytgach, “Al-jome‘ as-sahih” nomli 4 jildli hadislar to‘plamini tuzgan. Bu to‘plamga 7275 ta ishonchli hadislar kiritilgan. Bu kitob bir necha marta qayta ko‘chirilgan bo‘lib, u arab mamlakatlarida ham mashhurdir. Buxoriyning avlodlarga qoldirgan ilmiy-ma‘naviy merosi, yozgan asarlarning soni – 20 dan ortiq. Jumladan, “Al-adab al-Mufrat”, “At-tarix as-sag‘ir”, “At-tarix al-avsat”, “At-tarix al-kabir”, “Kitab al-ilal”, “Birrul-volidayn”, “Asmo uz-sahoba”, “Kitab al-kuna” shular jumlasidandir. Allomaning muhim asari “Al-jome‘ as-saxih”dir. Bu asar “Saxihi al-Buxoriy” nomi bilan mashhur bo‘lib, unga ishonchli, aniq hadislar kiritilgan. Hadislar sultoni Imom al-Buxoriyning asarlari ota-onaga hurmat, qarindoshlarga nisbatan oqibatli bo‘lish, qo‘shnilarga ozor bermaslik, qo‘shni

haqqini ado etish, fitnadan, g'iybat va kibrdan uzoq bo'lish, adolat bilan ish tutish kabi insonga xos fazilatlar hadislar orqali yoritilganki, zero ularni haq deb o'zida mujassam etgan inson hech qachon xor bo'lmaydi, deb umid qilamiz.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Zero, ma'rifatli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi Ibn Sino. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni etuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi.

U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o'z bilimining haqiqiylikini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning ta'lim metodlari haqidagi ta'limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkur, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak, degan g'oya yotadi.

Ibn Sino ta'limotida bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin – u og'zaki ifodami, bilimlarni tushuntirishmi, turli ko'rinishdagi suhbatmi, tajribalarmi, baribir talabada haqiqiy bilim hosil qilish mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo'lgan.

Ibn Sino ona allasining tarbiyaviy ahamiyatini quyidagicha ta'riflaydi: «Bolaning talabini qondirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri - bolani sekinsekin tebrating, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa – allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolalarning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhiyati bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi».

Abu Rayxon Beruniyning ta'kidlashicha, inson aql sohibi ekanligi bilan hayvondan farqlanadi. Bu farq insonning jamiyatdagi turfa ehtiyojlari bilan izohlanadi. Mazkur ehtiyojlar eng avvalo undan «yashiringan narsani bilishga» intilishda va kelajakda bo'ladiganini ko'rib qo'yishda, nimani halokatga ketayotgan bo'lsa, oldindan hozirlanib, oldini olish imkoniyatiga ega bo'lishda ko'zga tashlanadi». Abu Rayxon Beruniy axloqlikning ijtimoiy mezoni sifatida inson hayotida mehnatning ahamiyatini shunday ta'kidlaydi: «Baxtsizlikdan, johillikdan qutulish uchun mehnat qilish zarur».

Kaykovusning «Qobusnoma» asari Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida inson kamolotini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Unda Sharq pandnomalaridagi an'anaga binoan va X asrda paydo bo'lgan yoshlar jamoasi juvonmardlik tarbiyasi ifodalanadi. Muallif juvonmardlik haqida eng oxirgi bobda so'z yuritadi. U odamlarning xislatlarini uch xilga bo'ladi: aql, rostlik va juvonmardlik. Juvonmardlikning asosini Kaykovus uch narsada deb biladi. Birinchisi, aytgan so'zning ustidan chiqish, ya'ni rostlik; ikkinchisi rostlikka xilof qilmaslik; uchinchisi, xayr ishini ilgari tutish.

Shuningdek, asarda inson hayotida bilimning o'zni beqiyosligi, aqlan etuklilik har qanday moddiy boylikdan ustunligi ta'kidlanadi: «Agar mol mulking kamayib qolsa, aql bilan boyib ketishga harakat qil, zero aqliy kamolot, mol-mulk boyligidan yaxshiroqdir. Chunki aql bilan boylikka erishish mumkin, boylik bilan esa aql qozonish mumkin emas, savodsiz johil, qashshoq bo'lib qolaveradi, aqlni esa o'g'ri ololmaydi, suv olib ketmaydi, olov yutmaydi».

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida ilm olishning qadri, bilim eng bebaho boylik bo'lib, uning negizida insonning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashi, odobaxloqi, go'zal insoniy fazilatlarini shakllanishi, bilim va kasb-hunar insonning butun xatti-harakatlarini belgilashi ta'kidlab o'tilgan.

Shuningdek, alloma mol-dunyoga intilish va hirs qo'yishni xuddi tog'dan kelayotgan selga o'xshatadi. Mol-mulk hirsiga berilib ketgan kishi shu sel ostida qolgan toshdek chilparchin bo'ladi, deydi.

Abdurahmon Jomiy asarda bilimning inson hayotidagi ahamiyati hamda ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini belgilashdagi o'zni va rolini ochib berish bilan birga har bir kishi tomonidan ma'lum hunar sirlarini o'zlashtirish foydadan holi bo'lmasligini uqtiradi. Ayni o'rinda insonning qadr-qimmatini uning molu mulki bilan emas, aksincha, u tomonidan egallangan hunarning kishilar maishiy hayoti farovonligini ta'minlashdagi ahamiyati bilan belgilanishiga urg'u berib o'tadi.

Yusuf Xos Xojib «Qutadg'u bilig»da inson qadri bilimdonligida ekanligi haqida hikmat borligini quyidagicha ta'riflaydi: «Odamzod naslining ulug'ligi - bilimdon. U aql idrok tufayli ne-ne tugunlarni echishga qodir. O'quv-idrok va bilim egasi bo'lgan har qanday odam sharaflidir. Bilimni buyuk bil, o'quvni ulug', shu ikkov ulug'lar kishini tulug'» deya uqtirib, har bir kishi tug'ilgan kundan boshlab zarur ta'lim-tarbiyani olmog'i lozimligini uqtiradi. «Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina ularning noo'rin xatti-harakatlariga berilishining oldi olinadi», deydi alloma.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari Qutadg'u bilig – baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak, asar nomidan ham uning pandnasihatlar, ta'lim-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan etuk didaktik asar ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Abu Homid G'azzoliy o'zining «Ihyou ulumid-din» kitobida to'rtta katta mavzuni jamlagan: a) ibodatlar haqidagi qism, b) urf-odatlar haqidagi qism, v) halok qiluvchi va g) najot beruvchi narsalar haqidagi qismlar. Har bir qism o'ntadan, jami qirqta kitobni o'z ichiga olgan. Ta'kidlash joiz, Abu Homid G'azzoliy biror mavzuni yoritir ekan, islomiy odob va an'anaga ko'ra, dastlab unga tegishli oyatlarni keltiradi, so'ngra Payg'ambarimizning hadislariga murojaat etadi, keyin esa sahobalar va boshqa ulug'larning so'zlaridan, siyratlaridan dalillar keltiradi, shundan so'ng fikr-mulohazalarini bayon etadi, lozim o'rinlarda so'zlarini hujjat bilan quvvatlaydi. Biz Abu Homid G'azzoliyning «Ihyou ulumid-din» asarining

“Muhliqot”(halokatga olib boruvchi ofatlar) qismini, ya’ni “Til ofatlari”ni tanladik. Ushbu kitobda muomala odobi, yuksak axloqiy intizom masalalari oyat, hadis asosida sahobalarning so‘zlari, ibratomuz rivoyatlar orqali yoritilgan. Biz qisqa bo‘lsa-da, til, til ofatlari haqida so‘z yuritar ekanmiz, tilning faoliyat va ta’sir doirasiga chek yo‘q: yaxshilik sari yursa, oldida keng maydon, ufqlar qadar cho‘zilgan, yomonlik yo‘liga kirsam, ilon-chayonlar kabi sudralib, tubsiz tubanlikka ketishi mumkin ekani beixtiyor, har birimizni avval o‘ylab, keyin so‘ylashga chorlaydi.

Alisher Navoiy ilmni inson kamoloti uchun eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. U ilmni inson, xalqni nodonlik, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta’riflaydi. Shunga ko‘ra, o‘z asarlarida kishilarni ilm-ma’rifatli bo‘lishga undaydi. Ilm olish har bir kishining insoniy burchi, deb hisoblaydi. Chunki ilm egallashdan maqsad ham xalqning, o‘z mamlakatining baxtsaodatli, farovon hayot kechirishi uchun xizmat qilishdan iboratdir, deydi.

Alisher Navoiy o‘z ruboiylarida insonlarni shukur qilishga chaqirib, og‘ir kundagi shukur umid uyg‘otadi, boshga tushgan balolarni daf qiladi, deb ta’kidlaydi. Shu o‘rinda har birimiz beqiyos O‘zbekistonning fuqarosi ekanimizga, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffoligiga, sog‘-omon o‘z oilamiz bag‘rida yashayotganimizga shukur qilishimiz lozim.

Voiz Koshifiy «Axloqi muhsiniy» asarida aql bilan faoliyatning o‘zaro aloqasi haqida gapirib, barcha kishilar aqlga ehtiyoj sezishi, aql esa amaliy faoliyatga ehtiyoj sezishini ta’kidlaydi. Harakat, faoliyat aqlning ko‘zgusi sanaladi. Aql yordamida insoniy tajribalar, ma’naviy qadriyatlar yig‘ilib boradi va kelgusi avlodlarga etkaziladi, deydi.

Jaloliddin Davoniyning «Pedagogik qarashlarida aqliy tarbiya va bilimlarni egallash masalalari muhim o‘rinni egallaydi. Bolalarga bilim berishni yoshlikdan boshlash zarurligini ta’kidlaydi. Davoniy inson aqlining qudratiga, uning ijtimoiy hodisalarni bilishiga, aql ilohiy ulug‘ bir ne’mat, haqiqat mezoni ekanligiga ishonadi. Chunki inson aql yordamida o‘z xatti-harakati, faoliyatini boshqaradi”.

Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida Vatan ishq, vatanparvarlik g‘oyalari etakchilik qiladi. Boburni dunyoga tanitgan asari uning «Boburnomasi»dir. Asarning qamrovi juda keng, mazmuni mukammal. Bobur o‘z qarashlarida oila tarbiyasi masalalariga ham e’tibor qaratadi. U oilada ongli holda qattiqqo‘llik bilan bolalarning tartibli, intizomli, ongli bo‘lishlarini talab etadi.

Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq» asarining bosh g‘oyasi ma’naviyat va ma’rifat, shaxs ta’lim va tarbiyasi masalasidir. Asarning «Ilm manfaati, jaholatning zarari haqida» deb atalgan birinchi bo‘limida «Bilim bilan saodat yo‘li ochiladi, shunga ko‘ra ilmli bo‘l, baxt yo‘lini izla. Bilimli kishi (qimmat) baholik dinordir, ilmsiz, johil kishi qimmatsiz mevadir. Bilimli kishi bilan bilimsiz odam qachon teng bo‘ladi, bilimli xotin er kishidir, bilimsiz erkak xotin kishidir» deb ilm, ilm kishilarini ko‘kga ko‘taradi.

Haydar Xorazmiy asarlarida odob-axloq masalalariga alohida o‘rin berilgan. U yosh avlodni har tomonlama etuk inson bo‘lishga chaqiradi, hatto bu fikrini shahzodalar, zamon hukmdorlariga ham dadillik bilan uqtiradi.

U jamiyatda har bir kishining tutgan o‘rniga to‘xtalar ekan, insonni o‘z ortidan yaxshi nom qoldirishga hamda yoshlarni fursatni boy bermasdan ilm-hunar o‘rganishga chaqiradi. Hofiz Xorazmiy jamiyatda har bir kishining tutgan o‘rniga to‘xtalarkan, u insondan hayotda yodgorlik sifatida yaxshi nom qolgani ma’qul, deydi. Uning fikricha, tiriklikda xayrli ishlarni qilib, ezgulik bilan nom chiqargan kishining xotirasi abadiydir. Xorazmiy yoshlarni fursatni qo‘ldan boy bermasdan ilm-hunar o‘rganishga da’vat etadi.

Jahon otin Uvaysiyning ma’rifiy faoliyatida ayollar savodxonligini oshirish, aqliy tarbiya masalalariga alohida o‘rin berilgan, U o‘z davrining yosh tolibalariga hayotga muhabbat tuyg‘ularini singdirib borgan, tez fikrlash, chiroyli so‘zlash va boshqa tarbiya vositalari bilan bog‘liq bo‘lgan chiston-topishmoq usullarni yaratishni o‘rgatgan. Shuning uchun ham Uvaysiy ijodiy merosini o‘rganish va uni hozirgi davr milliy ta’lim-tarbiya tizimi mazmuniga kiritish muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o‘z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma’naviyaxloqiy sifatlarni ulug‘laydilar va barchani ushbu fazilat va xislatlar egasi bo‘lishga chorlaydilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. / Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015. – 120 b.
2. Navoiy. Mahbubul-qulub. Asarlar, 12 tom. - T.: «Badiiy adabiyot» nashri, 1966. – 60 b.
3. Oybek. «Navoiy». T: «SHarq», 1995. B.36.
4. Sa’diy, Musliqiddin. Guliston. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1968. -184 b.
5. Salimov B. A.Navoiy ijodida insoniylik g‘oyalarining aks ettirilishi va uning ahamiyati.//A.Navoiy va XXI asr. Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. 2016. B.139.
6. Sino, ibn Abu Ali. Tib qonunlari. Uch jildlik saylanma. 1-jild. – Toshkent: Meros, 1993. - 182 b.
7. Tllashev X.X., Kamolova N.K. O‘rta asr qomusiy olimlari va ularning ma’naviy – ma’rifiy qarashlari. - T.: «Cho‘lpon», 2004.
8. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: «Fan», 2006. 99-b.
9. Tursunova M. Adabiyot darslarida sharhlash usuli. «Alpomish» dostoni misolida // Til va adabiyot ta’limi, 1992 yil, 4-5 sonlar.

10. To'xliiev B. Xos Yusuf Hojibning «Qutadg'u bilig» asariga so'zboshi. Nashrga tayyorlovchi Qayum Karimov. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1971. - 115-bet., 6-b.
11. Umar Xayyom. Navro'znoma. – T.: «Mehant», 1990. - 37-b.
12. Valixo'jaev B. Oliy ta'lim tizimi tarixining teran ildizlari // Ma'rifat, 2001 yil, 19-dekabr.
13. Xoshimov K., Ochil S. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: «O'qituvchi», 1995. 502-b.
14. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. –T.: «Yulduzcha», 1990. – 11 b.